

ARAB TILIDA SINTAKTIK O'ZGARISH BELGILARI MASALASI

Bektosheva Farangiz,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasini,
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
bakalavryat yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar:

Akamixanov Akmalxon,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasini, o'qituvchisi, PhD.
E-mail: akmalxonovibnahmad@mail.com Tel.: +998910099252*

O'ziga xos sintaktik-morfologik o'zgachaliklari bilan dunyo tillari ichida ajralib turadigan til arab tilidir. Mazkur tilda gap bo'laklari sintaktik o'zgarishlarni qabul qiladi yoki qabul qilmaydi. Shu xususiyatdan kelib chiqib, nahvshunoslar sintaktik jihatdan o'zgaruvchi so'zlarga: 1) kelishikda turlanuvchi so'zlar; 2) ta'kid (نونا التأكيد) va muannas ko'plik (نون الإناث) "nun"lari qo'shilmagan hozirgi-kelasi zamon fe'l shakllarini kiritishgan.

Arab tilida mazkur ikki toifadan boshqa so'zlar sintaktik o'zgarishlarni qabul qilmaydi. Ism turkumidagi so'zlar sintaktik o'zgarishlarni olishi yoki olmasligiga ko'ra ikki turga bo'linadi. 1. Kelishikda turlanuvchi ism (الاسم المتمكن). 2. Kelishikda turlanmaydigan ism (الاسم غير المتمكن). So'zni talaffuz qilganda zehnda harflari chalkashib ketmagan, biron shaxs yoki predmetni ifodalovchi surat namoyon bo'lsa, bu so'zga "kelishikda turlanuvchi ism (الاسم المتمكن)" deyiladi. Mazkur so'zlarda fe'l yoki yordamchi so'zlarga nisbatan biror o'xshashlik bo'lmaydi. Xususan, so'zlarning tuzilishida ham o'xshashlik mavjud emasligini kuzatish mumkin.

Misol uchun: "كتاب" so'zi [kitaabun] deb o'qiladi, bu so'z o'qilganida ko'z oldingizga harflari bir-biriga aralashib ketmagan, chalkashlikdan holi bir predmet keladi, shuningdek, fe'l yoki yordamchi so'z turkumlariga o'xshash biror belgi yo'q. Ismlarning bu turi "kelishikda turlanuvchi (الاسم المعرب)", deb ataladi.

Kelishikda turlanuvchi (الاسم المعرب) (sintaktik jihatdan o'zgaruvchi) so'zlarga quyidagilar kiradi:

- a) Ism mutamakkin
 - b) ta'kid va muannas-ko'plik "nun"laridan holi hozirgi-kelasi zamon fe'li
- Sintaktik o'zgarish (الإعراب)lar 4 xil bo'lib, har biri muayyan belgiga ega:



• الرفع – (Ismlarda bosh kelishik, fe'llarda aniqlik mayliga nisbatan to'g'ri keluvchi). Bu sintaktik o'zgarish belgisi – الضمة [u] (keyingi o'rinlarda rof deb yuritiladi).

• النصب – (Ismlarda tushum kelishigi, fe'llarda istak mayliga nisbatan to'g'ri keluvchi). Bu sintaktik o'zgarish belgisi – الفتحة [a]. (keyingi o'rinlarda nasb deb yuritiladi).

• الجر – (Ismlarda qaratqich kelishigiga nisbatan to'g'ri keluvchi). Bu sintaktik o'zgarish belgisi – الكسرة [i]. (keyingi o'rinlarda jar deb yuritiladi).

• الجزم – (Fe'llarda shart mayliga nisbatan to'g'ri keluvchi). Bu sintaktik o'zgarish belgisi – السكون [◌]. (keyingi o'rinlarda jazm deb yuritiladi).

Ya'ni, so'zning sintaktik o'zgarishi uning oxirgi harakatiga qarab aniqlanadi.

Masalan: يَفْرَأُ مُحَمَّدٌ كِتَابَ النَّحْوِ.

- يقرأ so'zidagi "hamza"ning dammasi uning rofligiga
- محمد so'zidagi "dal"ning tanvin-zammasi uning rofligiga
- كتاب so'zidagi "ba"ning fathasi uning nasbligiga
- النحو so'zidagi "vav"ning kasrasi uning jarligiga ishora qilmoqda.

Ma'lumki, muannas to'g'ri ko'plik nasbda kasra bilan ifodalanadi, ikki kelishikli so'zlar esa jarda fatha bilan ifodalanadi.

Masalan: رَأَيْتُ شَجَرَاتٍ مُثْمِرَةً فِي أَمَاكِنَ كَثِيرَةٍ.

Nahvda bu so'zlar quyidagicha tarkib (tahlil) qilinadi:

شجرات- مفعول به منصوب بالكسرة نيابة عن الفتحة، كأنه جمع مؤنث سالم.

(شجرات - mansub so'z, uning belgisi - fatha o'rnida kelgan kasra, chunki u muannas to'g'ri ko'plikdir).

مثمرة-صفة منصوب بالفتحة الظاهرة

(مثمرة - aniqlovchi, mansub so'z, uning belgisi - ko'rinib turuvchi fatha).

أماكن-اسم مجرور ب(في) و علامة جره الفتحة نيابة عن الكسرة، لأنه ممنوع من الصرف.

(أماكن - predlogi bilan majrur so'z, uning belgisi – kasra o'rnida kelgan fatha, chunki u ikki kelishiklidir).

كثيرة – صفة مجرور بالكسرة الظاهرة.

(كثيرة - aniqlovchi, majrur so'z, uning belgisi - ko'rinib turuvchi kasra).

Bir ko'rishda harakatlar o'zgarib qolgandek, chunki رأيت dan keyin nasb [◌], في predlogidan keyin jar [◌] kelishi talab etiladi. Biroq yuqoridagi ikki so'z ham ikki



kelishikli(g'oyru-munsarif) bo'lganligi uchun sintaktik qoydalarga mos ravishda harakat qabul qilmoqda.

Sintaktik o'zgarishlarning yuqoridagi harakatlardan boshqa belgilari ham bor. Ular ا ي ن و ي ا kabi harflar bilan ifodalandi:

- Ikkilik shaklidagi so'zning rofligiga "alif", jar va nasbligiga "ya"
- Muzakkar to'g'ri ko'plik shaklidagi so'zning rofligiga "vav", nasb va jarligiga "ya"
- "Olti ism (الأسماء الستة)" so'zlarning rofligiga "vav", nasbligiga "alif", jarligiga "ya"
- "Fe'ning besh shakli (الأفعال الخمسة)" shaklidagi so'zlarning rofligiga "nun"ning borligi, nasb va jazmligiga "nun"ning tushib qolishi ishora qiladi.

Shu to'rt qoidaning barchasini birgina misol bilan ko'rib chiqamiz.

المعلونَ يطلبونَ أبا الأخوينَ أن يجيئنا في وقتِه.

المعلون-مبتدأ، مرفوع بالواو لأنه جمع مذكر سالم؛

يطلبون-خبر، مرفوع بالثبوت النون؛

أبا- مفعل به منصوب بالألف لأنه من الأسماء الستة مضاف؛

الأخوين-مضاف إليه مجرور بالياء لأنه مثني؛

أن-حرف نصب مبني على السكون لا محل له من الإعراب؛

يجيئنا-فعل مضارع منصوب ب(أن) و علامة نصبه حذف النون، و الألف ضمير مبني على السكون في محل نصب مفعول به.

في-حرف جر، مبني على السكون لا محل له من الإعراب

وقته- (وقت)مجرور ب(في) و علامة جره الكسرة الظاهرة، و هو مضاف، و (ه) مضاف إليه مجرور بالكسرة.

Arab tilida sintaktik o'zgarishlar harakat, harflarning tushib qolishi, harakat tushib qolishi bilan sodir bo'ladi. Bularning barchasi o'ziga xos bo'lgan jarayonlarda namoyon bo'ladi. Sintaktik jarayonlar so'z qaysi turkumga mansubligiga ko'ra farqlanadi.

